

Jafarov Botir Sattarovich
Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
G`aniyeva Barchinoy Mahmud qizi
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**“KITABU BULG`ATIL MUSHTAQ FI LUG`AT AT -TURK VAL
QIPCHOQ” QO`LYOZMASI – TURKIY XALQLAR YOZMA OBIDASI**

***Annotatsiya:** Turkiy xalqlar yozma yodgorliklarini o`rganar ekanmiz ular o`zida qanchalik uzoq tarixiy jarayonlarni qamrab olganiga amin bo`lamiz. Shu bois, qadimiy yozma manbalarni o`rganishning ahamiyati katta. Ana shunday yozma obidalaridan biri Jamoliddin at-Turkiyning XIV asrga oid “Kitabu bulg`atil mushtaq fi lug`atat turk val qifchaq“ qo`lyozmasidir. ”Bulg`atil mushtaq “ qo`lyozmasi asosan ikki qismdan iborat bo`lib, ular fe`ldan boshqa so`z turkumlari masalan, ot, sifat kabilar hamda fe`l so`z turkumiga oid so`zlarni ichiga olgan. Maqolada shulardan qo`lyozmaning birinchi qismi xususida mulohaza yuritilgan .*

***Kalit so`zlar:**Mamluklar davlati, turkiy xalqlar, qo`lyozma, ekstralingvistik birliklar, leksik tahlil, qipchoq-turkiy, arab yozuvi, tarixiy jarayonlar .*

Жафаров Ботир Саттарович
Профессор Наманганского государственного университета, доктор
филологических наук (DSc)
Ганиева Барчиной Махмудовна
Независимый исследователь Наманганского государственного
университета

**РУКОПИСЬ “КИТАБУ БУЛГАТИЛ МУШТАК ФИ ЛУГАТАТ ТЮРК
ВАЛ КИФЧАК” – ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК ТУРЕЦКОГО
НАРОДА**

***Аннотация.** Изучая письменные памятники тюркских народов, мы убеждаемся в том, насколько они охватывали в себе исторические процессы. Поэтому изучение древних письменных источников имеет большое значение. Одним из таких письменных памятников является рукопись XIV века Джамолиддина ат-Турки "Китабу булгатил муштак фи лугатат турк вал кифчак". Рукопись "Булгатил Муштак" разделена на две части, которые содержат слова таких групп, отличных от глаголов, как существительные, прилагательные и во вторую часть вошли глаголы. Статья в основном посвящена первой части этой рукописи.*

***Ключевые слова:** мамлюкское государство, тюркские народы, рукопись, экстралингвистические единицы, лексический анализ, кипчакско-тюркский язык, арабская письменность, исторические процессы.*

Jafarov Botir Sattarovich
Professor of Namangan State University, Doctor of Philological Sciences (DSc)
Ganiyeva Barchinoy
Independent researcher at Namangan State University

**THE MANUSCRIPT "KITABU BULGATIL MUSHTAQ FI LUG`ATAT
TURK VAL QIFCHAQ" IS THE HANDWRITTEN MONUMENT OF THE
TURKIC PEOPLE**

***Annotation:** As we study the written monuments of the Turkic peoples, we become convinced of how far they covered historical processes. Therefore, the study of ancient written sources is of great importance. One of these written manuscripts is the 14th-century manuscript of Jamoliddin at-Turki "Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'atat turk val qifchaq". The manuscript Bulgatil Mushtaq mainly is mainly divided into two parts, which contain words of such word groups other than verbs, like nouns, adjectives and the second part include verbs. The article focuses mainly on the first part of the manuscript.*

***Key words:** Mamluk state, Turkic peoples, manuscript, extralinguistic units, lexical analysis, Kipchak-Turkic, Arabic script, historical processes.*

Kirish Turkiy tillarni tadqiq qilishda qadimgi va eski turkiy til davriga oid yozma manbalar, qo`lyozmalarning o`rni beqiyos. Tarixiy manbalar nafaqat tilni o`rganishda balki, o`sha davr madaniyatini , turmush tarzini tadqiq etishda , shuningdek, hozirgi zamonaviy tilimizdagi leksik birliklarning asl kelib chiqish ildizini o`rganishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Turkiy tilda yozilgan qo`lyozmalar orasida Jamoliddin at-Turkiyning XIV asrga oid “Kitabu bulg`atil mushtaq fi lug`atat turk val qifchaq” (keyingi o`rinlarda “Bulg`atil mushtaq”) qo`lyozmasini tadqiq etish o`rinlidir. Chunki, ushbu qo`lyozma olimlar tomonidan yetarlicha o`rganilmagan bo`lib, u o`z ichiga arab tilidagi so`zlarning qipchoq- turkiy tildagi tarjimasini qamrab olgan .

Qo`lyozma Misr Mamluklar davlati (1250-1517) davrida yozilgan bo`lib, o`sha davrda ilmiy yozishmalar asosan arab tilida olib borilgan . Arab tiliga nafaqat davlat tili , balki ilm-fan tili sifatida ham e`tibor qaratilgan . Shu boisdan , “Kitabu bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasi arab tilini o`rganishda o`z davrida juda zaruriy manba sifatida qo`llanilgan bo`lsa , hozirgi zamon filologlari uchun ham ko`plab ilmiy tadqiqotlarning ob`yekti bo`lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: “Bulg`atil mushtaq “ qo`lyozmasini ilk bor polyak turkologi A. Zayonchkovskiy tomonidan o`rganilib 1938-yilda nashrdan chiqqan. 1954-yilda esa ushbu qo`lyozmaning II tomi, ya`ni “Fe`llar bobi “ qismi nashr etilgan¹, 1958-yilda esa uning birinchi qismi qayta nashr etiladi.² Ushbu qo`lyozmani monografik jihatdan o`rgangan olimlardan Sh. Fayzullayeva ham o`zining ilmiy ishlarida keltirgan.<sup>3</sup> Shuningdek, G. R. Gaynutdinova “Bulg`atil mushtaq “ qo`lyozmasini tarixiy-lingvistik jihatdan o`rganib chiqib yozgan dissertatsiyasi⁴ tadqiqotimizda asosiy manba sifatida keltirilishi mumkin. Shuningdek, turk olimasi Gulhan at-Turkning ham bu boradagi tadqiqotlari e`tiborga molikdir.⁵

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodolik asosini qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik usullar tashkil etadi. Tadqiqot ishi boshqalaridan farqli ravishda qadimgi turkiy til hamda turkiy tillar oilasiga mansub hozirgi o`zbek tili bilan qiyoslab o`rganishni va shu orqali o`zbek tilimizdagi leksik birliklarning kelib chiqishini aniqlash, ekstralingvistik omillarni belgilashda, tilning shakllanish bosqichlarini kuzatishda kelgusidagi tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar. “Kitabu bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasi Parij Milliy Kutubxonasida 293chi raqam ostida saqlanadi⁶ . Qo`lyozma ikki yirik qismdan iborat bo`lib : Birinchi qism – Ismlar (muallif bu qismga alohida umumiy nom bermagan, arab tilida fe`ldan boshqa so`z turkumlari umumiy qilib ismlar deyilgani bois shunday atashni lozim topildi) ; Ikkinchi qism – fe`llar . Ushbu qismlar o`z navbatida kichik boblar va fasllarga bo`lingan. Bu haqida qo`lyozmaning kirish qismida ham muallif ta`kidlab o`tadi: ” Qolaversa, men buni

¹ ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, *Zajaczkowski, Ananias, Vocabulaire Arabe-Kiptchak de l'époque de l'Etat Mamelouk, Bulāḡt al-Muṣṭaq fī lǧuāt at-Turk wa'l Qıfçaq, II Le Verba*, Warszawa 1954.

² ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, *Vocabulaire Arabe-Kıpcak de l'époque de l'Etat Mamelouk, Bulḡat al Muṣṭaq fī luḡat at-Turk wa'l-Qıfçaq, II- ére partie Le nom*, Warszawa, 1958.

³ Fayzullaeva, Sh. A. 1969. *Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. “Kitabu bulg`at al-mushtaq fī lug`at at —turk va-l qifchaq” Djamaalad — Dina at-Turki: diss. kand. filol. nauk (PhD diss.)*. Tashkent.

⁴ Gaynutdinova, Gulnara Rashatovna, *İstoriko-lingvisticheskiy analiz turkotatarskogo pismennogo pamyatnika XIV veka jamal al-Dina at-Turki “Kitabu bulat al- Muṣṭak fī Lugat at-Turk va-l-Kıfçak”*, Kazan, 2005.

⁵ Al- Turk Gulhan *Kitābu bulḡatu'l-muṣṭāk fī luḡati't-türk we'l-kıfçāk üzerine dil incelemesi*, Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara – 2012.

⁶ <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b10082257s/f1.item>

boblar va bo`limlarga ajratdim. Fasllar bilan tartibladim. Unga mos keluvchi so`zlarni joylashtirdim.^{8b2}”

Qo`lyozmaning sahifalariga e`tibor qaratsak, undagi Ismlar (ot, sifat son , olmosh kabi fe`ldan boshqa so`z turkumlari arab tilida shunday deyiladi) bo`limi (8-betdan 21-betgacha), 13 ikki tomonlama sahifadan iborat bo`lib ja`mi 26 betni qamrab olgan , “Fe`llar bobi” esa juda katta qismni (21-betdan 88-betgacha) – 67 ikki tomonlama sahifani egallagan bo`lib , ja`mi 135(so`nggi bir tomonlama sahifa bilan) betni tashkil etadi . Shunday qilib, ushbu qo`lyozmaning lug`at qismi 80 ikki tomonlama sahifada mujassamlashgan, ja`mi 161(so`nggi bir tomonlama sahifa bilan) betdan iborat. Qo`lyozmada so`zlar juftligi zig-zag shaklida yozilib ikki zig-zag qatorlar bir romb qatorni tashkil qilgan. Har bir qatorda uchta so`z juftligi berilgan bo`lib, har sahifada 5tadan romb qatorlar mavjud, shunda har bir qatorda o`rtacha 30 ta so`z juftligi berilgan(sarlavha, izohlar berilgan sahifalar bundan mustasno). O`ng tomonda arabcha so`zlar qora siyohda, chap tomonda esa ularning qipchoq -turkiy tildagi tarjimai esa qizil siyohda yozilgan.

Qo`lyozmaning tarkibiy qismlariga kelsak, unda muallifning o`zi “bob”⁷ sifatida bergan 4ta yirik bob, ya`ni, “Birinchi bob (Ba:b ul-Avval) “ , “Ikkinchi bob (Ba:b us-Saniy) ” , “Ravish bobi( Ba:b uz-Zarfi)”, “Fe`llar bobi (Ba:b ul-Af`a:l) “ kabilardan iborat bo`lib, birinchi, ikkinchi va ravishlar boblarini Ismlar bo`limi sifatida o`rganish mumkin. Arab tilida va turkiy tillarda ham Ismlar fe`ldan boshqa so`z turkumlarining umumiy nomi bo`lib<sup>8</sup>, bunday atash yuqoridagi boblarning tarkibiy qismlari uchun aynan mos atama bo`la oladi. O`z navbatida, yuqorida berilgan yirik boblar kichik boblarga va fasllarga ajratilgan bo`lib, ayrim fasllardan tashqari barcha bob va fasllarning o`z nomi bor, biroq muallif birinchi va ikkinchi bobdan tashqari boshqa kichik boblarni sonlar bilan tartiblamagan , aksincha har qaysi bobga o`z tarkibiga mos ravishda nom qo`yganligi tarjima ishini aniq bo`lishini ta`minlaydi. Qo`lyozmadagi Ismlar bo`limi o`z ichiga quyidagilarni qamrab olgan:

⁷ Bunda “Fe`llar bobi”ning tarkibidagi barcha boblar ham muallif tomonidan “bob” deb berilgan.

⁸ *Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi : o`quv qo`llanma / X.Dadaboyev, Z.Xolmanova - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni,2015. 60b.*

Birinchi bob (Ba:b ul-Avval) : Alloh Taoloning ismlari va osmon, undagi boshqa narsalar nomlari. Bu bobda 48 ta soʻzning arabcha – qipchoq -turkiycha tarjimasi berilgan boʻlib, ular oʻz ichiga Alloh taoloning goʻzal ismlari: Tangri-8b/3.1⁹, Buyuk(Al-Azi:ym)-8b/3.2, Rizq beruvchi(Ar-Razzoq)-8b/3.3, shuningdek, Qurʻon-8b/3.4 , paygʻambar-8b/3.5, 3.6, farishtalar -8b/4.1 kabi soʻzlar, osmonga oid soʻzlar : osmon-8b/4.2, quyosh-8b/4.3, 4.4, oy-8b/4.5 , oy shuʻlasi-8b/4.6, yulduz-8b/5.1; yulduz turkumlari va burjlar :qovgʻa burji- 8b/5.2, Kichik Ayiq yulduz turkumi-8b/5.3, Katta Ayiq yulduz turkumi-8b/5.4, Choʻlpon, Zuhro yulduzi- 8b/5.5, somon yoʻli-8b/5.6; tabiat va tabiat hodisalariga oid soʻzlar: bulut –“bulut ”9a/2.2 , tuman- “tuman”9a/2.3, yagʻmur–“yomgʻir”9a/2.4, qor–“qor”9a/2.5, yel –“yel, shamol”9a/2.6, yelsir, yel eser –“yel, shaboda”9a/3.1, yek- “boʻron”9a/3.2, anam ahsik qustur –“kamalak”9a/3.3, yaraq –“chaqmoq”9a/3.5, yashin – “yashin”9a/3.6, shin - “chaqmoq nuri”9a/4.1, kukramak –“ momaqaldiraq”9a/4.2, chiq – “shudring”9a/4.3, tom–“ tomchilamoq”9a/4.4, tomchiq – “tomchi”9a/4.5, chalqin –“ yomgʻirli bulutli vaqt”9a/4.6, esmes – “sokin havo”9a/5.1, suvuq -“ sovuq”9a5.2, issi – “issiq”9a/5.3, buz –“ muz”9a/5.4 kabi soʻzlarni qamrab olgan.

Ikkinchi bob (Ba:b us-Soniy): Yer va undagi boshqa narsalar, shaharga oid soʻzlar : 2.1 Fasl¹⁰10a; 2.2 Fasl¹¹11a; 2.3 Fasl¹²11b; 2.4 Fasl¹³11b; 2.5 Harbiy va uning qurollari va boshqa narsalar. Vatanga oid fasl12a. 2.6 Don va boshqalar boʻyicha fasl12b; 2.7 Hayvonlarga oid fasl¹⁴12b; 2.8 Ichimliklar nomlari fasli14a¹⁵; 2.9 Fasl14b¹⁶; 2.10 Kasalliklar nomlari fasli15a; 2.11 Yirtqich hayvonlar ismlari va

⁹ Keyingi oʻrinlarda soʻzlar shu tartibda beriladi. Bu qoʻlyozmadagi “8”-sahifa raqami(har bir sahifa 2 betdan iborat), “a”- sahifaning oʻng tarafi; “b”-sahifaning chap taraf betlari, “3.1”- bunda “3” ikki qator zigzagdan iborat romb shaklidagi qatorning 3-si boʻlib, “.” dan soʻng kelgan 1 oʻsha qatorning yuqorisidagi chapdan birinchi soʻz(qoʻlyozmada soʻzlar romb shaklini eslatuvchi zigzag shaklida yozilgan boʻlib, bunda 3ta romb bitta qatorni hosil qiladi , har sahifada 5 tadan shunday qatorlar mavjud boʻlib, ular 1dan 5gacha raqamlandi, romb qatorlarning yuqorisidagi zig-zag shaklidagi soʻzliklar “.“ belgisidan soʻng 1, 2,3 shaklida berildi, rombning pastgi qismidagilar esa 4, 5, 6 shaklida raqamlandi)ni anglatadi.

¹⁰ Bu faslga muallif nom bermagan. Bu faslda aralash mavzudagi soʻzlar berilgan.

¹¹ Bu Faslga nom qoʻyilmagan. Aralash mavzuga oid soʻzlar berilgan.

¹² Bu faslga muallif tomonidan nom qoʻyilmagan, unda hayot, oʻlim va boshqalarga oid soʻzlar berilgan.

¹³ Bu faslga nom berilmagan va u dinga oid soʻzlarni oʻz ichiga olgan.

¹⁴ “Hayvonlarga oid fasl” va “ichimliklarga oid fasl” orasida 13b sahifada oziq – ovqatlarga oid soʻzlar berilgan boʻlib, unga sarlavha qoʻyilmagan yoki sahifa yoʻqolgan boʻlishi mumkin.

¹⁵ Bu faslning nomi berilgan, ammo unga oid soʻzlar berilmagan, yoki sahifa yoʻqolgan boʻlishi mumkin.

¹⁶ Bu faslga muallif tomonidan nom berilmagan, unda oʻlchov birliklari berilgan

boshqalar fasli15a; 2.12 Hasharotlar nomlari fasli16a; 2.13 Qushlar nomlari fasli16a; 2.14 Sonlar fasli17a;

Uchinchi ravish bobi. 3.1 Ravishning ikki turi: makon ravishi, zamon ravishi, payt ravishlari 17b; 3.2 Makon ravishlari18b; 3.3 Fasl ¹⁷19a; 3.4 Olmoshlari fasli20b; 3.5 Fasl (ko`plik va egalik qo`shimchalari haqida ayrim qoidalar berilgan)20b;

Yuqorida keltirilganidek, “Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasining tarkibiy qismlari uchta yirik boblar va ularning tarkibida yana kichik boblar va fasllarni qamrab olgan. Fikrimizcha, “Birinchi bob (Ba:b ul- Avval)” ning tarkibida boshqa boblar mavjud emas va barcha mavzulashtirilgan kichik bob va fasllar “Ikkinchi bob (Ba:b us-Saniy)”ning tarkibida berilgan deyish mumkin. Garchi muallif barcha boblarning nomini bir xil ko`rinishda yozib, ularni aynan ikkinchi bob tarkibida ekanligini ta`kidlamagan bo`lsa-da, mazmunan va shaklan buni anglash qiyin emas. Bunda “Birinchi bob”ning taglavhasida “Alloh Taoloning ismlari va osmon, undagi boshqa narsalar nomlari” deb yozilgan va shunga mos so`zlar , ya`ni barcha osmonga oid so`zlar tartiblangan. “Ikkinchi bob”da esa muallif “Yer va undagi boshqa narsalar, shaharga oid so`zlar” deb nomlanib shunga oid so`zlarni ko`plab fasl va boblarga ajratib yozgan. Bundan ko`rinib turibdiki, muallif avval osmonga oid so`zlarni “birinchi bobda keltirgan , “Ikkinchi bob”da esa endi yerga oid barcha so`zlarni mavzulashtirgan holda tartiblaganligini ko`rishimiz mumkin. Qo`lyozmada har bir bobning nomi avval yozilib keyin so`zlar tartiblangan. Qolaversa, muallifning o`zi bob sifatida ko`rsatgan “Ravish bobi “ ham mavjud. Bu bob tarkibida makon va zamon ravishlaridan tashqari, sonlar, olmoshlar va ayrim qoidalariga oid fasllar ham berilgan. Bu kabi fasllarning “Ravish bobi”da berilishining sababi, “birinchi” va “ikkinchi” boblar tarkibida asosan otga oid so`zlar berilgan, “ravish bobi” da berilgan so`zlar esa ot va fe`lga aloqasi bo`lmagan so`z turkumlariga oid so`zlarni o`z ichiga olgan. Qolaversa, qo`lyozmada ko`plab mazmun o`zgargan o`rinlarda “Fasl” deb yozilib ularga nom berilmagan, bu fasllarda turli xil aralash mazmundagi so`zlar berilgan .

¹⁷ Bu faslga nom qo`yilmagan, unda ayrim olmoshga oid so`zlar berilgan.

“Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasining Ismlar bo`limida ayrim kamchiliklar mavjud. Aslida, qo`lyozmada tartib buzilmasligi uchun muallif “b” sahifada berilishi kerak bo`lgan so`zni “a” sahifaning ostida ham kichik ko`rinishda yozgan. Bunda faqat “a” sahifadagina shunday so`zlar berilib, ular arab tilidagi so`zdan iboratdir (hech bir o`rinda bunday tartib qipchoq-turkiycha so`z yozdamida berilmagan). “b” sahifalarning esa ostgi qismi bo`sh qolgan, ya`ni keyingi sahifada keluvchi so`z “b” sahifada berilmagan. Bu tartib buzilgan o`rinlar ham mavjud bo`lib, bu ko`p holatlarda sahifa yo`qolganligi bilan bog`liqdir. “Bulg`atil mushtaq” qo`lyozmasidagi “Hayvonlarga oid fasl<sup>18</sup>” va “Ichimliklarga oid fasl” orasida 13b sahifada oziq – ovqatlarga oid so`zlar berilgan bo`lib, unga sarlavha qo`yilmagan. Buni xattotning yoki muallifning xatosi deb bo`lmaydi chunki, aynan shu 13a sahifa so`ngida keyingi sahifada kelishi kerak bo`lgan so`z – **القرق** berilgan bo`lsada, keyingi 13b sahifada birinchi so`z – **اللُقْمَة** kelgan, Demak, sahifa yo`qolgan bo`lishi mumkin. Bundan tashqari, 14a sahifada faqatgina nomi berilgan “Ichimliklarga oid fasl”da ham keyingi betda unga oid so`zlar kelishi kerak edi, ammo 14b sahifada qarindoshlarga oid so`zlar sarlavhasiz kelgan. Shuningdek, 14a sahifa ostida keyingi sahifada kelishi lozim bo`lgan so`z ham berilmagan. Bunda muallif ham xattot ham sarlavhaning o`zini yozib uning tarkibida so`zlarni yozmasligi mantiqqa zid. Demak, bu yerda ham sahifa yo`qolgan bo`lishi ehtimoldan holi emas.

Yuqorida keltirilgan boblar va fasllar “Bulg`atil mushtaq “ yozma obidasining birinchi qismi ya`ni Ismlar bo`limi bo`lib, ushbu bo`lim o`z tarkibiga ot, sifat, ravish, olmosh, son hamda ayrim grammatik qoidalarni qamrab olgan. So`zlarni tartiblashda muallif ularning o`zaro bog`liqligiga, sinonimligiga, aloqadorligiga yoki antonimligiga alohida e`tibor qaratgan. Xususan, otga oid so`zlarni tartiblashda avvalo, sinonimlardan va o`zaro aloqador so`zlardan samarali foydalangan. Quyida “Birinchi bob”da kelgan so`zlar ketma ketligiga e`tibor qaratsak: 1) - **السَّمَاءِ - كُكْ** - Ko`k, samo, osmon 8b/2.2; 2) - **كُنْ الشَّمْسُ** -

¹⁸ Bu fasl 12a sahifadan boshlangan.

4) quyosh nuri 8b/2.4; - قَيْشْ شَعَاغُ الشَّمْسِ - 3) kun, quyosh 8b/2.3; 5) oy shu'lasasi 8b/2.6. - يَرْقُ ضُو الْقَمَرِ 5) oy 8b/2.5; - الْقَمَرِ-أَيَّ

Bu so'zlardan birinchisi arabcha "As-samo 8b 2.2" qipchoq-turkiy tilda "Ko`k 8b 2.2" deb berilgan bo`lib osmon , ko`k , samo ma`nosida kelgan va keyingi qatorda esa unga aloqador so'zlar ketma ketligi berilgan : "Kun" 8b 2.3, ya`ni "quyosh" ma`nosida, "quyosh " 8b 2.4 so`zi ham shu ma`noda kelgan va bu ikki so`z sinonimdir. Navbatdagi so'zlar: "oy" 8b 2.5 , "oy shu'lasasi 8b 2.6" – ham aloqadorlik asosida terilgan, ya`ni ular ham "osmon" so`ziga aloqador. Ayni paytda ulardan "oy" 8b 2.5 so`zi o`zidan oldin kelgan so`z "quyosh 8b 2.4" ga qarama-qarshi hamdir. "oy shu'lasasi 8b 2.6" so`zi esa "oy 8b 2.5 " so`ziga aloqador ekanligini ko`rish mumkin. Qisqa qilib aytganda, qo`lyozmada so`larning tartiblanishi aloqadorlik , sinonimlik, antonimlik kabilarga asoslangan. Shuni ham aytish joizki, arabchada berilgan so'zlardan شَعَاغُ الشَّمْسِ - "quyosh nuri"8b/2.4 va ضُو الْقَمَرِ - "oy shu'lasasi"8b/2.6 so'zlariga e`tibor qaratsak, ulardagi "sha':un" va "zu:un" so'zlari ma`nosi "nur, yorug`lik " bo`lsada, arab tilida quyosh nurini ifodalash uchun "sha':un", oy nurini ifodalash uchun "zu:un" so'zlaridan foydalaniladi. Qo`lyozmada esa شَعَاغُ الشَّمْسِ -quyosh nuri " so`zining qipchoq-turkiycha tarjimasida " قَيْشْ -quyosh" so`zi berilgan. Demak, turkiy tilda qo`llaniluvchi quyosh so`zi nafaqat bugungi ma`nosida, balki "quyosh nuri" ma`nosida ham qo`llanilgan. Qolaversa, muallif arabchada "الشَّمْسُ -quyosh" so`zining qipchoq- turkiychada "kun"8b/2.3 so`zi bilan ifodalagan. "Oy" so`zi esa qipchoq-turkiyda ham, shaklan va mazmunan o`zgarmagan bo`lsada, "oy shu'lasasi" so`zi qipchoq- turkiychada "yariq"8b/2.6 ya`ni "yorug`" shaklida berilgan. "Yariq"8b/2.6 so`zi o`z navbatida qo`lyozmada berilgan "yaraq"9a/3.5 ya`ni "chaqmoq nuri" so`zi bilan shaklan o`xshash bo`lib, mazmunan yaqin hamdir. Har ikkala so`z ham yorug`lik va nur kabi tushunchalarni ifodalaydi.

"Bulg`atil mushtaq" qo`lyozmasining Ismlar qismida otdan tashqari sifatlar :

يَرْقُ - وَاحِدٌ - sonlar: 9a5.3; -إِسِّي الْجَرُّ- -sovuq 9a5.2; -الْبَرْدُ--
 Uch17a4.1; -تَلْتَهْ- أَجْ - ikki17a3.6, -إِثْنَيْنِ- إَكِّي - bir17a3.5, payt ravishlari: -
 - يَعْزُو فَوْقْ - joy ravishlari: - Ertaga17b5.5; -إِزْتَا عَدَا- bugun17b5.4, بَكُنْ

yuqorida18b3.1, - اشْعَا أَسَقْلُ - Pastda18b3.2; olmoshlar: - بُوَهْدَا - bu 19a 5.6, أَتَا مَرْنُ - Men 20b 2.3, أَنْتَ - Sen20b2.4 kabi soʻz turkumlariga oid soʻzlar berilgan. Qolaversa, ayrim sintaktik va lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar boʻyicha qoidalar va ularga oid misollar keltirilgan. Xususan, -lar koʻplik qoʻshimchasi boʻyicha quyidagicha qoida berilgan:

“Agar soʻzlarni koʻplik shaklida qoʻllamoqchi boʻlsangiz ularga – lar qoʻshimchasini qoʻshing, masalan:

حَجَارَة طَشَلَر Toshlar 20b4.1

أَطَلَر حَيْل Otlar 20b4.2

قَطِرَلَر بَعَال Qoʻtirlar 20b4.3

كِشِي لَر تَاس Kishilar. 20b 4.4”

Yuqorida berilgan grammatik qoida Jamoliddin at-Turkiy tomonidan XIV asrda yozilgan boʻlsa-da bugungi kungacha turkiy tillar uchun umumiy qonuniyat sifatida saqlanib kelgan. Buni qoʻlyozmada berilgan boshqa qoʻshimchalar (egallik, kelishik, shaxs –son qoʻshimchalari) toʻgʻrisidagi izohlar orqali ham anglash mumkin. Bunda nafaqat qoʻshimchalar(-lar), balki soʻzning oʻzak(tosh, ot, qoʻtir, kishi) qismi ham aynan shunday saqlanib qolgan va koʻplab turkiy tillar qatori oʻzbek tilida ham bugungi kunda qoʻllaniladi.

Xulosa. Jamoliddin at-Turkiy yozib qoldirgan XIV asr obidasi boʻlgan “Kitabu bulgʻatil mushtaq fi lugʻat at-turk val qifchaq” qoʻlyozmasi turkiy xalqlar uchun ulkan ahamiyatga ega tarixiy-ilmiy asar deyish mumkin. Qoʻlyozma lugʻat sifatida yozilganligi bois oʻz davrida ham til oʻrganuvchilar uchun zaruriy manba boʻlgan, bu haqida muallif qoʻlyozmaning kirish qismida taʼkidlab oʻtgan: “Lugʻatni mustahkam qilib boyitdim va unga tayanaman. Men uchun noaniq boʻlgan narsalarda unga tayanaman. Men uni tahrirladim. Uni oʻzlashtirdim. Toki uni yod olgan kishida, til ahli orasida kuchli ustunlik boʻladi. Boshqa tuzatish va oʻzgartirishlarga hojat yoʻq”. Bundan koʻrinib turibdiki, qoʻlyozmani tuzishda muallif astoydil mehnat qilgan va til oʻrganuvchilar uchun juda manfaatli

bo`lishiga ishongan. Shuni ham alohida ta`kidlash joizki, qo`lyozmada berilgan turkiycha so`zlarning aksariyati bugunbi kunda o`zbek tilimizda keng qo`llanilib, ko`plab so`zlar, lug`aviy hamda sintaktik shakl yasovchi qo`shimchalar ham hech bir o`zgarishsiz saqlanib qolganligi e`tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al- Turk Gulhan, Kitābu bulḡatu'l-muṣṭāk fi luḡati't-türk we'l-ḳifḳāk üzerine dil incelemesi, Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Ankara – 2012.
2. Fayzullaeva, Sh. A. 1969. Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. “Kitabu bulḡat al-mushtaq fi lug‘at at —turk va-l qifchaq” Djamalad — Dina at-Turki: diss. kand. filol. nauk (PhD diss.). Tashkent.
3. Gaynutdinova, Gulnara Rashatovna, İstoriko-lingvisticheskiy analiz turkotatarskogo pismennogo pamyatnika XIV veka jamal al-Dina at-Turki “Kitabu bulat al- Muṣṭak fi Lugat at-Turk va-l-Kifḳak”, Kazan, 2005.
4. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 1980. Toshkent: O`qituvchi.
5. O`zbek tilining izohli lug‘ati. I-II. 1981. Moskva: Russkiy yazik.
6. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi : o‘quv qo‘llanma / X.Dadaboyev, Z.Xolmanova - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni,2015. 60b.
7. ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, Vocabulaire Arabe-Kipchak de l'époque de l'Etat Mamelouk, Bulḡat al Muṣṭaq fi luḡat at-Turk wa'l-Qıfḳaq, II- ére partie Le nom, Warszawa, 1958.
8. ZAJĄCZKOWSKI, Ananiz, Zajączkowski, Ananias, Vocabulaire Arabe-Kiptchak de l'époque de l'Etat Mamelouk, Bulāḡt al-Muṣṭaq fi lḡuat at-Turk wa'l Qıfḳaq, II Le Verba, Warszawa 1954.
9. <https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/btv1b10082257s/f1.item>
10. <https://www.laneslexicon.com>